

Murhanova Nilufar Yigitaliyevna

ADCHTI Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bilamizki, arab tilining jahonga keng tarqalishini, Arabiston yarim orolida millodiy VII asrda islom dinining paydo bo‘lishi sabab bo‘ldi. Sabab: islom dinining muqaddas kitobi „Qur‘oni karim“ ushbu tilda nozil bo‘lishidir. Islom dinining O‘rta osiyoga kirib kelishi bu yerlik aholining tub so‘zlashuv tiliga ham katta ta‘sirini o‘tkazdi.

Kalit so‘zlar: arab tili, Qur‘oni Karim, klassik davr, umumiy, qo‘shimchalar.

Abstract: We know that the spread of the Arabic language to the world was caused by the emergence of Islam in the Arabian Peninsula in the 7th century AD. The reason: the holy book of Islam, the Holy Qur‘an, was revealed in this language. The introduction of Islam to Central Asia had a great impact on the native language of the local population.

Key words: Arabic language, Holy Qur‘an, classical period, general, adverbs.

Аннотация: Мы знаем, что распространение арабского языка в мире было вызвано появлением ислама на Аравийском полуострове в VII веке нашей эры. Причина: священная книга ислама, Священный Коран, была ниспослана на этом языке. Внедрение ислама в Среднюю Азию оказало большое влияние на родной язык местного населения.

Ключевые слова: арабский язык, Священный Коран, классический период, общее, наречия.

Bilamizki, arab tilining jahonga keng tarqalishini, Arabiston yarim orolida millodiy VII asrda islom dinining paydo bo‘lishi sabab bo‘ldi. Sabab: islom dinining muqaddas kitobi „Qur‘oni karim“ ushbu tilda nozil bo‘lishidir. Islom dinining O‘rta osiyoga kirib kelishi bu yerlik aholining tub so‘zlashuv tiliga ham katta ta‘sirini o‘tkazdi. Xususan bugungi kunda o‘zbek tili leksikologiyasidagi qo‘llaniladigan aksar so‘zlar, arab tilidan o‘z ma‘nosida yoki boshqa bir ma‘no anglatgan xolda kirib kelgan „Lison“ so‘zi bizga she‘riyat mulkinging sultoni mir Alisher Navoiy bobomizning “Mison ut-tayr” asari orqali malumdir. Biz bu so‘zni „Kuch tili“, ya‘ni nutqi sifatida tushunamiz lekin bu so‘z asl arab tilida inson a‘zosi bo‘lgan „Til“ ma‘nosini ifodalaydi.

Ishonchli manbalarda ko‘rsatilishicha arab tilining paydo bo‘lishi 3-ga bo‘linadi

1. Ilk (klassik yoki islomgacha bolgan davr, johiliyat davri milodiy VII asr)
2. Klassik davr (VII- XVII asrlar)
3. Zamonaviy davr (XIX asrdan hozirgi paytgacha)

Eng qadimgi arab yozuvi xaqida bizgacha yetib kelgan likyan, seludsaf, an-nimar (eramiz =328yil) zabad(eramizning 512yili) yozuvlari xisoblanadi. Uning adabiy formasi islom dini paydo bo‘lmasdan shakllangan (A.A.Kavalyov. G. SH. Sharbatov. “Uch arab tili”5-bet). Klassik davr adabiy merosi “Qur‘oni Karim” hisoblanadi.

Klassik arab tili o‘rta va yaqin sharq tillarining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Arab istilosi sababli va islom dinining tarqalishi bilan arab tilining ahamiyati Sharqda yanada kuchaydi bu davrda arab tili o‘rta va yaqin sharq xalqlarining madaniy xayotida xalqaro til ro‘lini o‘ynadi.

Arab tili o‘rta va yaqin sharqning ko‘plab tillariga leksika sohasida juda katta ijobiy ta‘sir korsatdi. Turk fors, afgon(pushtu) va tillar lug‘at boyligining 50-60 foizini arab so‘zlari tashkil etadi.

Arab tilining ta‘sirini o‘zbek tilida ham kuzatish mumkun. Mashhur tilshunos olim Fotix Abdullayev o‘zbek tilidagi arabizm haqidagi tadqiqot ishlarida 50-60 foiz arab so‘zlarining o‘zbek tiliga ozlashganligini aytadilar. Hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan ko‘p shoir va yozuvchilar arab va fors tillarida ijod etganlar, ular ikki tillik yozuvchilar deb atalgan. “Alvon” الوان so‘zi esa o‘zbek tilida turli xil degan ma‘noni anglatrsa, arab tilida “rang” so‘zining ko‘pligini

ya’ni ranglar degan ma’noni anglatadi. Biz ko’proq bu so’zni “Kamalakning alvon ranglari” misolida o’rganamiz.

“Ovqat” اوقات so’zi o’zbek tilida yeyiladigan narsa ma’nosini anglatadi, arab tilida esa vaqt ma’nosini anglatadi. Maktab so’zi o’zbek tilida o’quv dargohi ma’nosini, arab tilida yozadigan joy ma’nosini, majlis so’zi o’zbek tilida yig’ilish biror bir muammoni hal qilish ma’nosini arab tilida esa o’tiradigan joy ma’nosini anglatadi. O’z manosida kirib kelgan so’zlar o’zbek leksikasida arab tilidan o’z ma’nosini to’g’ridan to’g’ri ifodalagan so’zlar talaygina topiladi. Bular علم ilm, تعلم ta’lim olish, كتاب kitob, دفتر daftar, ميدان maydon, قلم qalam, ذكي zakiy, عالم olim, مکتوب maktub xat, درس dars, معلم muddaris, dars beruvchi muallim, استاد ilm beruvchi ustoz, ورق varoq kabi yuzlab so’zlardur.

Yana shunday so’zlar borki bu so’zlar arab tilida nisbiy sifat sifatida qo’llaniladi, lekin o’zbek tilida “iy” qoshimchasi bilan tallafuz qilinadi “ Islomiy, Madaniy, Marifiy, ilmiy, siyosiy, ijtimoiy, qiyosiy, umumiy, ommaviy, lug’aviy, ma’muriy, hududiy, kabi sozlardir, “iy” qo’shimcha o’zbek tilidagi “li” qo’shimchasini, Termiziy, Farobiy, Buxoriy, Farg’oniy, Andijoniy kabi so’zlarda “lik” qo’shimchasini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaev I.K. xos so’zli sintaktik qurilmalarning tarjimada berilishiga doir. Xorijiy filologiya. – Samarqand. 2002
2. Mirzaev M, Usmonov S, Rasulov I. O’zbek tili. – Toshkent. Oliy Maktab 1965,